


Ертаклар - яхшilikka yetaklar

SIRLI ХАЗИНА




ZIYO NASHR





Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda Balx shahrida Mahmud degan bir yamoqchi qari onasi bilan yashar ekan. Kambag'al bo'lgani uchun Mahmud yamoqchining uylanishga qurbi yetmas ekan. O'zi juda oqko'ngil, mehribon yigit ekan.

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 1013 | 21 - 148



Chol o‘z davrining bilimdon kishisi ekan. Uyida o‘zining katta kutubxonasi bor ekan. Ana shu kitoblardan birida bir sir yozilgan ekan. Bu kitobda yozilishicha bir tepalik ostidagi allaqanday o‘rada doim chiroq yonib turar ekan. U yerda: „Chiroqni Mahmud degan yamoqchi olib chiqsa, tuganmas xazinaga ega bo‘lishi mumkin“, deb yozilgan ekan.






Shunday qilib, chol bilan Mahmud yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri bir dasht-u biyobonga yetibdi. Chol bir balandlikka chiqib, o'tirib dam olibdi.

Chol Mahmudga qarab:


– Qani bolam, yaqinroq kelib o'tir, – debdi.


Mahmud cholning oldiga yaqinroq kelib o'tiribdi.




Shunda u Mahmudga qarab bunday debdi:

– O'g'lim Mahmud, onang bilan hamma vaqt kambag'alilikda kun kechirgansan. Shu vaqtgacha uylanmagansan, endi men senga bir sirni aytaman. Shundan keyin baxtli kun kechirasan. Hayoting farovon bo'ladi. Boylikka ega bo'lasan, uylanib ham olasan. Sen o'z baxtingga ega bo'lish uchun shu o'tirgan joyimizdagi anavi toshni ko'tarasan. O'sha joyda yer ostiga ketgan yo'l bor, avval zinadan pastga tushasan, unda yo'lak bor. Shu yo'lakdan asta-sekin yursang, bir katta saroyga chiqasan, saroyda qirqta xona bo'lib, unda qimatbaho narsalar, oltin-u, javohirlar bor. O'sha xonalarning qirqinchisida bir eski jinchiroq bor. Shuni olib chiqsang, u yerdag'i boylik, xazinalar seniki bo'ladi.







Cholning so'zlarini diqqat bilan tinglagan Mahmud ikkilanib o'ylab ko'ribdi. So'ngra, tavakkal, shu cholning aytganini bir qilib ko'ray, deb chol ko'rsatgan joyda turgan toshni ko'ta-ribdi. Qarasa, chindan yo'l bor ekan. Yo'lda yer tagiga tushib ketgan zina ham bormish.



Zinadan pastga qarab tusha boshlabdi. Undan yo'lakka tushibdi. Yo'lakdan bir katta yorug' saroyga chiqibdi. Saroyda bir qancha xonalari bor ekan, xonalarni birma-bir ochib ko'ribdi. Ulardagi qimmatbaho tosh, oltin-u kumushlarni ko'rib ko'zi qamashibdi.





Keyin jinchiroq yonib turgan xonaga kiribdi va uni olib tepaga olib chiqibdi. Shundan so'ng bitmas-tuganmas xazinaga ega bo'lib, cholga minnatdorchilik bildiribdi. Bu chol Xizr buva ekan. Shundan keyin Mahmud o'z shahriga qaytib, bir qizga uylanib, yaxshi kun kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.



E 83 **Sirli xazina.** [Matn]: ertak. / – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 16 b.

ISBN 978-9943-6443-7-3

UO'K: 821.512.133-343.4

KBK 83.8

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar

SIRLI XAZINA

Ertak

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

Abdurahmon Jo'rayev
Nasiba Ergasheva
Malika Kamolova
Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019

30.08.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 $\frac{1}{16}$.

Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 0,10. Adadi 30 000. Shartnoma № 188–20

Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

Ertaklar - yaxshilikka yetaklar

SIRBLI XAZINA



ZIYO NASHR



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



UcharGilam
ONLINE DO'KON



YANGI
KITOBLARIMIZNI
INTERNET ORQALI
ONLAYN
XARID
QILISH UCHUN
QR-KODNI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-6443-7-3

9 789943 644373